

Ona yurting - oltin beshiging

TONG

yulduzi

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi
Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiga boshlagan

№22(66407)
2003 yil
2 iyun
dushanba
Sotuvida
erkin narxda

Aziz bolajonlar, aytin-chi, 74 yoshli nuroni otaxonga 5 yoshli bolakay kim bo'ladi? Nabira, abira ham bo'lishi mumkin, deysizmi? Juda to'g'ri topdingiz. Demak, bu yil o'zining 74 yilligini qarshi oladigan sevimli nashringiz «Tong yulduzi»ga

bolalar yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyev, sevimli shoirimiz Normurod Narzullayevlar samimiyl dil so'zleri bilan qutlashdi. Bolalarning sevimli dastalarini «Nastarin» va «Binafsha» kichkintoylarining chiqishlari, Nodirbek Lutfullayev, Oybek

tomoshabin qolmadni.

Nihoyat eng hayaonli daqiqalar yetib keldi. «Eng ashaddiy muxlis», «Eng ko'p maktublar muallifi», «O'zingni sinab ko'r», «Eng yosh ijodkor», «Eng faol targ'ibotchi» kabi

«SINF DOSH»

tanaffus paytlarida sindoshlarining bilan talashib-tortishib o'qiydigan jurnalningiz «Sinf-dosh» - abira bo'lar ekan, shundaymi?

Kuni kecha abiramiz - «Sinf-dosh»ning «tug'ilgan kuni»ni nishonladik. «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati binosining majlislar zalida jurnalning 5 yilligi munosabati bilan taqdimot marosimi va bayram-shou bo'lib o'tdi. «Sinf-dosh»ni qutlagani juda ko'plab mehmonlar, o'qituvchilar o'quvchilar kelishdi.

Shahrimizdag 45 - maktabni bundan 50 yil avval tamomlagan nuroni otaxonlar 82 yoshli ustozlari bilan tashrif buyurib, davramizga yanada fayz kiritishdi. Tantanani «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati markazi kengashi raisi Botir Ubaydullayev tabrik so'zi bilan ochib berdi. So'ngra prezident devoni mas'ul xodimi Laziz Tangriev, matbuot va ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi raisi Xurshid Do'stmuhammad,

Hamroqulov, Zarinabonu, Baxtiyorlarning qo'shiqlari chin ma'nodagi yoshlar bayramiga ko'tarinkilik baxsh etdi. Hasan Rajabiy ijrosidagi bir just qo'shiq nuroni otaxonlarimiz uchun sovg'a tariqasida yangradi. Mohir so'z

ustasi, qiziqchi Sherli Hojiyevning hangomalarini eshitib, yurakdan kulmagan

SIRDOSHIM

nominatsiyalar bo'yicha g'oliblar aniqlanib, oltin medal hamda Xalq Ta'limi vazirligi, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining Faxriy yorliqlari, «Yangi asr avlod» matbaa-markazi tomonidan ajratilgan sovg'a-salomlar bilan taqdirlandilar. Muhayyo Ochilova, Mahbuba Ermatova, Ekrin Abdurahmonov, Zamira Beshimova singari turli nominatsiyalarning g'oliblari uchun qo'lga kiritgan sovrinlarining yanada qadrli jihatishunda bo'ldiki, ularni taniqli yozuvchiyu adiblar, jurnalistlar, yoshlar va bolalar nashrlarining bosh muharrirlari topshirishdi.

Har bir taomning nomi, ta'mi, mazasi va ko'rinishi turlicha bo'lganidek, bolalar nashrlarining ham maslak-maqsadi yagona bo'lsa-da, mazmun-mohiyati, tili, mundarijasi turlicha. Shu ma'noda «bolalarga ma'naviyat ulashuvchi gazeta» deya ta'rif olgan «Tong yulduzi»ning ham, darslardan bo'sh vaqtaringizni maroqli, mazmunli o'tkazishingizga o'z hissasini qo'shib kelayotgan «Sinf-dosh»ning ham o'z o'quvchilar, ashaddiy muxislari bor. Tavallud ayyomida tili burro va o'ktam abiramiz «Sinf-dosh»ga biz ham omadlar tiladik. Sahifalari yanada boyib, yuz mingdan ziyod o'quvchilar soni bundan ortishiga tilakdosh bo'ldik.

Feruza JALILOVA.

Tumanimizdag 13-maktabni ibratl bo'lgan rassom-murabbiy, maktab makkabardan biri desam, xato qilmagan bo'laman. Chunki mazkur maktabda

fanlar uslub birlashma ishlari bilan bir ruhshunosi Abdumannob Atashev qatorda o'quvchilarning bo'sh vaqlarini mazmunli o'tkazishlari uchun tashkil etilgan ijodiy to'garaklar, klublar, ayniqsa, sportning turli yo'naliishidagi to'garaklar faoliyati namunali yo'lga qo'yilgan.

Maktabda ibrat olsa arzirli yana bir to'garak mavjud bo'lib, u «Prezident farzandlari» deb nomlanadi. Unga 2002 yilda O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi mukofotining sohibi

o'qishga, yashashga, Vatanimga sodiq farzand bo'lishga hamda uni ko'z qorachig'idek asrashga va'da beraman».

To'garak a'zolari «Umid» jamg'armasining ish faoliyati bilan tanishishadi, dunyo bolalar hayotini o'rganishadi. Prezident asarlarini o'qib, mag'zini chaqishga hamdatengoshlariga so'zlab berishga harakat qilishadi. «Hushyorlikka da'vat», «Prezident saboqlari» kabi mavzularda mashg'ulotlar olibborishadi. Dilnoza Imomova, Xumora Ibrohimova, Bobur Abdurahimov, Xurshida Abdyeva, Mushtariy Turg'unova kabi o'quvchilar to'garakning eng faol a'zolaridan. Ularning tashabbusi bilan o'quvchilar har shanbada bo'lib o'tadigan

President farzandlari

yig'ilishda yurtimiz hayotiga oid eng muhim yangiliklar bilan tanishib, Prezidentimizning yangi asarlari haqida ma'lumotlar oladilar.

«Yangilikning qanoti bor» deganlaridek, mazkur to'garak a'zolari nimaiki yangilik, axborot bo'lsa, tengdoshlarini tezroq xabardor qilishga oshiqishadi. Istardikki, bunday to'garaklar boshqa maktablarda ham faoliyat ko'rsatsa. Ular o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirib, bilimlarini boyitishga xizmat qilishi tayin.

Umida YUSUPOVA,
Andijon viloyati, Buloqboshi tumanidagi 3 - maktab o'qituvchisi.


VA'DA BERAMAN!



SPORTCHILAR MAK TABI

Maktabimizni shunday atashadi. Chunki bizda sportga mehr qo'yan, u bilan muntazam shug'ullanib kelayotgan o'g'il-qizlar talaygina. Shu bois ham sport bellashuvlari tez-tez o'tkazib turiladi. Bunday bellashuvlarda qatnashish ayniqsa 5-sinf o'quvchilarining jonu dili. O'g'il bolalar sportning futbol, kurash, taekvondo turlari bo'yicha musobaqalashsalar, qizlar voleybol, yengil atletika bahslarida o'zaro kuch sinashdilar. O'g'il bolalar orasidagi bellashuvlarda g'oliblik 5 - «A» sinfning epchil va chaqqon bolalariga nasib qilgan bo'lsa, qizlar bahsida 5 - «D» sinf qizlari ustunlikka erishdilar. G'oliblar maktab ma'muriyati tomonidan munosib sovg'a-salomlar bilan taqdirlandilar. Musobaqlar so'ngida bunday tadbirdarning ahamiyati haqida davra suhbat bo'lib o'tdi.

Dildora PIRNAZAROVA,
Jizzax viloyati, Zomin tumanidagi 50 - o'rta maktabning 5 - «D» sinf o'quvchisi.

**BESH YOSHDAN MAK TABGA**

Yetti yoshga to'ldik biz,
Endi bilim olamiz.

Ushbu misralar barchamizga yaxshi tanish-a? Chunki yetti yoshga to'lgach qadrdon bog'chamiz bilan xayrashib, maktab tomon yo'l o'rganimizda mana shunday she'rlar aytganmiz.

Ingliz bolalari esa bunday she'rlarni ancha barvaqtroq, 5 yoshli chog'larida aytisharkan. Chunki ular maktabga biz kabi yetti yoshdan emas, besh yoshlaridan borisharkan. 5-7 yoshlarida boshlang'ich sinfning 1-bosqichini o'tab, o'qish, yozishni o'rganishadi. Ular aqliy qobiliyatlariga ko'ra «kuchli» va «kuchsiz» guruhlarga ajratiladi. 7-11 yoshlarida esa 2-bosqichni o'tashadi va ingliz tili, arifmetika, geografiya, tabiatni muhofaza qilish, suzish, musiqa va rasm kabi fanlarni o'zlashtirishadi. Bu bosqichda bolalar 1-bosqichda olgan baholariga qarab yoki maxsus testlar yordamida tekshirilib, qobiliyatli, o'rta qobiliyatli va past o'zlashtiruvchi o'quvchilariga ajratiladi. Har bir guruh maxsus dasturlar asosida o'qishni davom ettiradi. 2-bosqich niyoyasida o'quvchilar imtihonlar asosida o'rta maktabga qabul qilinadilar. Bu imtihonlar bolalarning qobiliyatini aniqlashga yo'naltirilgan bo'ladi.

Britaniyada davlat tomonidan nazorat qilinmaydigan pullik maktablar, maxsus maktablar, siyosiy, diplomatik, harbiy va cherkov faoliyati uchun o'quvchilar yetishtirib beruvchi vaqtinchalik maktablar juda ko'p. Bu maktablarni tugatgan o'quvchilar uchun Oksford, Kembridj va boshqa universitetlarning eshlari hamisha ochiq.

Bundan tashqari Angliyada mustaqil va tayyorlovchi maktablar ham faoliyat ko'rsatadi. Mustaqil maktablarning ko'philigi cherkovlar ixtiyorida bo'lib, o'z o'quvchilarini vaqtinchalik maktablarga tayyorlaydilar.

Ingliz tilidan Hamza tumanidagi

155 - o'rta maktabning 10 - «A» sinf o'quvchisi

Mirvoris MIRHABIBOV tarjimasi.

mumlangan haykallar haqida bizga batafsil gapirib berdilar.

Ularning aytishlaricha, Amir Temurning sochlari tabiiy sochdan, ko'zlar esa S.Fyodorov nomidagi klinikadatayyorlanibdi. Hatto tishlari ham haqiqiy bo'lib, bosh va qo'l qismi mumdan, qolgan qismi plastinkadan ekan.

Ko'rgazma bilan yaqindan tanisharekanmiz, tarixga oid juda ko'plab ma'lumotlarni bilib oldik.

Nargiza RIXSIBOYEVA,
O'zDJTU qoshidagi Akmal Ikromov akademik litseyning 1-bosqich 3- guruh talabasi.



Bu Amir Temurning o'zimi yo haykali? Ajratish qiyin-a.

MUMLANGAN HAYKALLAR

O'zbekiston Davlat San'at muzeyi 85 yildan buyon faoliyat ko'rsatib kelayapti. Unda 500.000 dan ziyod eksponatlar mavjud. Muzey uch qavatdan iborat bo'lib, birinchi qavatidan rassomchilik san'ati namunalari joy olgan. Ikkinci qavatida haykaltaroshlik, o'zbek xalq amaliy san'ati, uchinchi qavatida esa Yaponiya milliy ko'rgazmasi namunalarini tomosha qilishimiz mumkin.

Yaqinda sinfdoshlarim bilan ustozimiz boshchiligidan muzeyga borgandik. Omadni qarangki, shu kuni «Toshkent- rassomlar nighohida» deb nomlangan ko'rgazma namoyish etilayotgan ekan. Ko'rgazmadan o'rinni olgan poytaxtimizning eng go'zal joylari tasvirlarini zo'r qiziqish bilan tomosha



Muzey xodimasi Asalxon opa

qildik.

So'ngra ikkinchi qavatdagi Sankt-Peterburg shahri bilan hamkorlikdagi ko'rgazmani ko'rdik. «Mumlangan haykallar» deb nomlangan ushbu ko'rgazma bizda katta taassurot qoldirdi. Ismlari ma'lum va mashhur insonlarning xuddi jonlidek haykallari orasida buyuk sarkarda bobomiz - sohibqiron Amir Temurning haykali ham borligini ko'rib, niyoyatda quvonib ketdik.

«TAEKVONDO» NI SOG'INDIM

O'quvchilik davrimda yonginamizdag «Yon» qishlog'ida «Taekvondo VTF» to'garagi ochilgan edi. Ukalarim Jamshid, Oybek va tengdoshlarim O'ktam, Bobur, Mahmud, Eldor, Sodiqlar bilan haftada uch marta to'garakka qatnardik. Ushbu sport turiga qishlog'imizdagi ko'philik bolalar qiziqishardi. Bolalarning ko'pligidan sport zalida bemalol mashq qilishgajoy ham qolmasdi. Ammo oyalar o'tib, mashqlar murakkablashib borgani sari ko'philik bolalar qiyinchilikka chidolmay, tashlab ketishardi. Nihoyat to'garakda oltmishta yaqin haqiqiy ixlosmand bolalar qolishgan. Tajribali ustozimiz Baxtiyor akani hammamiz juda hurmat qillardik. U kishi bizga taekvondo - ko'chada bezorilik qilish, mushtashish uchun emas, balki, jismonan baquvvat bo'lish va o'z-o'zini himoya qilish uchun zarurdil.

Biz u kishining maslahatlari doimo amal qilishga harakat qilardik.

Men do'stlarim Jamshid, O'ktamlar qatori «Sariq belbog» sohibi bo'lgandim. Hozirda Respublika Nafis san'at litseyida tahsil olmoqdaman. Lekin bu yerda taekvondo to'garagi yo'qligi sababli o'rgangan mashqlarimni o'zimcha har kuni uyda takrorlab turaman. Men o'qiyotgan litseyda ham shunday to'garak ochilsa, yaxshi bo'lardi.

Jahongir JO'RAYEV,

Poytaxtimizdag Nafis san'at litseyining 9- «A» sinf o'quvchisi.

HAR KUNI BIR YANGILIK

Har kuni maktabga borsam, yangi bir xushxabarning guvohi bo'lyapman. Yaqinginada ona-tili va adabiyot fani o'qituvchimiz Dilfuza opa Tojiyeva «O'qituvchi - 2003» ko'rik-tanlovida qatnashib, faxrli 1 - o'rinni qo'lga kiritgan bo'lsalar, musiqa o'qituvchimiz Mahmuda opa boshchiligidagi «Ilhom chashmalari» nomli maktabimiz xori ishtiroychilari shahar miyisosida birinchi o'rinni egallahadi. Jismoniy tarbiya o'qituvchimiz Zuhra opaning jonbozligida «Yashil chiroq» ko'rik-tanlovida qatnashgan o'quvchilarimiz respublika miyisosidagi bellashuvga yo'l olishdi. Hamshira opamiz Saida opa boshchiligidagi yosh shifokorlarimiz ham bo'sh kelishmadi. Ular «Salomatlikning yosh do'stleri» ko'rik-tanlovida g'oliblikni qo'lga kiritib qaytishdi. Endi ular shahar miyisosidagi tanlovda ishtiroy etib, nafaqat maktabimiz, balki tumanimiz sharafini ham himoya qilishadi. Biz ularga omadlar tilab qolamiz.

Dilrabo YUNUSOVA,

Poytaxtimizdag 249 - maktabning 8 - «G» sinf o'quvchisi.



E'tibor bergen bo'lsangiz bobolarimizda shunday odad bor: Yo'lda ketayotganlarida oldilaridan biror toshmi, kesakmi chiqib qolsa, darrov chetga surib qo'yadilar.

O'zları hassagatyanib, ehtiyotkorlik bilan ketishayotgan bo'lsa-

da, shuni chetga itqitmagunlaricha xotirjam ketolmaydi.

Yana, yo'lda biror chuqurmi, o'rachami ko'rib qolishsa, boshqalarini ehtiyotkorlikka chaqrib, cho'p-tayoq suqib qo'yishadi.

Ha, bobolarimizning, a n i q r o g ' i , o'tmishimizning har bir kechmishini ana shunday ogohlantiruvchi belgiga qiyoslagim keladi. Hayotimiz davomida qoqilib, suqilib, turtinib aziyat chekishdan ehtiyot qiladi tarix saboqlari bizni... Faqat uni vaqtida ilg'ab, uqib olsak bas... Bu borada o'quvchilarning ham fikr-mulohazalarini bilish maqsadida Xalq ta'limi, Oliy va o'rtta maxsus ta'lim vazirliklari hamda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi o'tgan o'quv yilda Qo'shma buyruq va Nizom asosida ijodiy insholar tanlovini e'lon qilgan edi.

Yaqinda Respublika ta'lim markazi binosida «Tarixni bilmay, kelajakni qurib bo'lmaydi» (Istiqlolning dastlabki yillardagi voqealar), «O'zbekiston tarixi sahifalari: Istiqlol sari mashaqqatliyo'l» mayzularida ijodiy insholar tanlovlarning yakuniy IV- bosqichi bo'lib o'tdi.

Mazkur tanlovnning dastlabki bosqichlarida 400 ming nafardan ziyod o'quvchilar ishtirot etishganini hakamlar hay'ati mammunlik bilane'lon qildi. Tanlovnning shu bosqichida esa Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahridagi g'olib deb topilgan 195 nafar maktab o'quvchilari, akademik litsey hamda kasb-hunar kollejlari va Oliy o'quv yurti talabalarining eng yaxshi ijodiy insholari taqdime etildi.

Respublika hakamlar hay'ati tanlov qoidalaridan kelib chiqib, har bir yo'naliш bo'yicha 3 ta birinchi, 3 ta ikkinchi, 3 ta uchinchi va 11 ta rag'batlantiruvchi o'rnlarni, jami 29 ta taqdirlanuvchi o'rnlarni belgiladi. Bularidan maktab o'quvchilari 18 nafarni, akademik litsey ya kasb-hunar kolleji o'quvchilari 5 nafarni, Oliy o'quv yurti talabalar 6 nafarni tashkil etdi.

-Ijodiy insholartanlovini o'tkazishdan asosiy maqsadimiz, - dedi Xalq Ta'limi vaziri o'rnbosari R.Sh. Ahliddinov, - o'quvchi va talabalarimizning yurtimiz istiqloliga erishgunga qadar bosib o'tgan tarixiy yo'li haqida qanchalik bilimga ega ekanliklarini bilish, mustaqillikning naqadar buyuk ne'mat va muqaddas qadriyatligini nechog'liq anglab

yetganliklarini baholashdir.

Chindan ham tanlov tashkilotchilari o'z maqsadiga erishganligini ishtirotchilarining yurak

Tanlov

tushuntirmagan edi... Shunday ekan, aziz tengdoshlar, ona-yurtimizni, uning o'tmishi va bugunini kelajak avlodga bezavol

yillarida O'zbekistonda juda og'irijtimoiy-siyosiy vaziyat vujudga kelgan edi. Ichki va tashqi g'animirimiz zo'r berib, fitna vanayranglarni ishgasolib, O'zbekistonda barqarorlikni yo'q qilishga,

fuarolar urushini

keltirib

chiqarishga

urinayotgan edi. Ana shu xavf-

hatarli yillarni- tarix sahifalarini xayolan varoqlar ekanman, agar o'sha tahlikali, murakkab bir vaziyatda yurtboshimiz boshqaruв tizimini bir oz bo'lsa-da bo'shashtirganida, qo'shni davlatlar Afg'oniston va Tojikistondagi voqealardan ham dahshatliroq fojialar yuz bergan bo'lar edi. Prezidentimiz sobitlik,

qat'iyat va matonat bilan og'ir

paytlarda «Mustaqillik» degan

oliyne'matni asrab qoldi. Biz

yoshlar ham mustaqil

Vatanimizni har qanday

yovdan asray bilishimiz kerak.

Uning ravnaqi uchun bor

bilimimiz, kuch-g'ayratimizni

ayamasligimiz kerak...» deya

dil-dildan yozadi o'zinshosida

Poyariq tumanidagi 20- maktabning 10-sinf o'quvchisi Nafisa Murodova.

TDSHI qoshidagi akademik litsey o'quvchisi, 3-darajali diplomga erishgan Shahnoza Axfordjayevanin inshosini ham hayajonsiz o'qish mumkin emas...

Shunday qilib, hakamlar hay'atining xulosasiga ko'ra, tanlovnning «Tarixni bilmay, kelajakni qurib bo'lmaydi» (Istiqlolning dastlabki yillardagi voqealar) yo'nalihi bo'yicha 1-o'rinni Yulduz Abdullayeva (Andijon viloyati, Asaka tumanidagi 27-maktabning 10-sinf o'quvchisi), Iroda Abdullayeva (Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat institutining 2-kurs talabasi), Zuhro Oqqulova (Jizzax viloyati, Zarbdor tumanidagi iqtidorli bolalar internati 10-sinf o'quvchisi) egallashdi.


Shu yo'nalihi bo'yicha ikkinchi o'rinnarga Nafisa Murodova (Samarqand viloyati, Poyariqtumanidagi 20- maktabning 10-sinf o'quvchisi), Yelena Nam (Xorazm viloyati, Urganch shahridagi 21- maktabning 11-sinf o'quvchisi), Roziya Oxunosa (Zarafshon akademik litseyining 1-kurs talabasi) ko'tarilishdi.

«O'zbekiston tarixi sahifalari: Istiqlol sari mashaqqatli yo'l» yo'nalihi bo'yicha 1-o'rinni Dilbaroy Mamarahimova (Andijon viloyati, Shahrixon tumanidagi 28- maktabning 10-sinf o'quvchisi), Laylo Matnazarova (Urganch Davlat Universiteti qoshidagi akademik litseyning 1-guruh talabasi), Nigora Jumayeva (Buxoro viloyati, Romiton tumanidagi 1-maktabning 10-sinf o'quvchisi) qo'lga kiritishdi.

29 nafar g'oliblarning barchasiga vazirliklar va «Kamolot» Yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashining diplomi va qimmatbaho sovg'alari topshirildi.

Saida ZOKIROVA.

ULUG'LARDAN ULUG'IMSAN VATANIM!



qo'ridan chiqib kelayotgan his-tuyg'uga boy, serma'no, mushohadali fikrlaridan ham bilsak bo'ladi: Mana, Romiton tumanidagi 1- maktabning 10-sinf o'quvchisi 1- darajali diplom sohibi bo'lgan Nigora Jumayevanin ijodidan bir shingilgina o'qib ko'ring-a...

«Mustabid tuzumming paxta yakka hokimligi davrida 80-yillar fojialari, jumladan, respublikamizda dongdor mexanizator sanalgan tumandoshim Halovat Pirova boshiga tushgan fojia qalbimni larzaga soldi. 18 yashar qiz kecha-kunduz dala bag'rini makon tutib, hatto samolyot ko'kdan zahar sochgan chog'da ham o'zini o'ylamay paxtazordan nari ketmas edi. Bu og'u payti kelib, g'o'za bargi bilan birga uning kelajagini, avlod payini ham quritishini unga biror bir sovet amaldori

goldirish uchun qo'limizdan keladigan barcha imkoniyatni ishga solaylik. Yurtimiz tarixini zarhal harflar bilan bitish bizning qo'limizdan keladi!...»

Urganch Davlat Universiteti qoshidagi akademik litsey o'quvchisi, 1-darajali diplomga ega bo'lgan Laylo Matnazarova esa shunday yozgan:

«Xalqimizning eng katta fojiasi- Sho'ro davrining mustamlakachilik zulmi ostida azob chekkanligi bo'ldi. Kommunistik mashinaning bayabat muruvvati xalq oniga «kommunizm jannati» haqidagi cho'pchaklarni muntazam tiqishtirishga urindi. So'z bilan ish birligining yo'qligi, poraxo'rlik, qog'ozbozlik, ma'muriy buyruqbozlik Sho'ro tuzumining eng katta illatlari edi...»

«Mustaqillikning dastlabki



Aziz bolajonlar, kamalakning necha xil rangda jilolanishini bilasizmi? «Bilish ham gapmi, juda ko'p ko'rganmiz-ku, qizil, sariq, ko'k, pushti...» Ha bo'ldi, bo'ldi. Ko'nglingizdan shunday gaplar o'tayotganini sezib turibman. Gapni nega aynan kamalakdan boshlaganimga hayron bo'layotgandirsiz. Gap shundaki, har yili «Xalqaro bolalarni himoya qilish kunis» oldidan Respublikamizda «Mehribonlik uyi» tarbiyalanuvchilari o'rtasida «Kamalak jilosi» nomli ko'rik-tanlov o'tkazilishi yaxshi biran'anaga aylanib qolgan. Bu xayrli tadbirning tashkilotchisi Hukumatga Qarashli Bo'Imagan «Sog'lom avlod uchun» Xalqaro Xayriya jamg'armasidir.

Ana shu ko'rik-tanlov bu yil ham e'lon qilingan edi. Kuni-kecha bayramona bezatilgan zamonaviy san'at Markazida viloyatlarda bosqichma-bosqich o'tkazib kelinayotgan tanlov g'oliblarining ko'rgazmasi va g'oliblarni taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. 21-, 22-, 23-, 24-, 31-sonli «Mehribonlik uyi» tarbiyalanuvchilari orasida eng zo'r rasmlar ko'rik-tanlovi ham uyuşhtirildi. Bolajonlar istagan mavzularida mazza qilib rasm chizishdi. Hakamlar hay'ati a'zolari ularning rasmlarini shu yerning o'zida baholab berishdi. 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan ishtirotchilar orasidan g'oliblarni tanlash biroz mushkulroq bo'ldi. Niyojat, poytaxtimizdag 30-sonli Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi 11 yoshli Igor Shevchenkoning chizgan rasmlari 1-o'ringa munosib Ziyavutdinovning «Dalada» qoraqalpog'istonlik 10 Bakirovning «Manzarasi»

Bakirovning «Manzarasi» manzarasi» ikkinchi

o'rnlarga munosib deb


topildi. 13 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan tengdoshlarining orasidan esa 14- Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi D.Fatixov «Pasxa» tasvirini birinchi o'ringa loyiq deb topilgan bo'lsa, ikkinchi va uchinchi o'rnlarni qashqadaryolik Muxlisa Hoshimova hamda xorazmlik Baxtiyor Boltayevlar «Bahor manzarasi» va «Obod mahalla» rasmlari uchun bo'lishib olishdi.

Ko'rik-tanlovnning tantanali ochilish marosimida so'z olgan «Sog'lom avlod» xalqaro xayriya jamg'armasi Boshqaruvi raisi S.T.Inamova, bunday tadbirlar bolalarning san'at va madaniyatga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishga, iqtidorli yoshlarni aniqlashga va iste'doddarni tarbiyalashga xizmat qilishi haqida hayajon bilan gapirdi. Tanlovg'a mehmon bo'lib kelgan Misr Arab Respublikasi favqulodda va muxtor elchisi janob Gamil Said Ibrohim Fayyed ham o'z hayratini yashirib o'tirmadi. O'zbekistonlik bolalar mahorati, ijodiga yuksak baho berdi. O'zbekiston Badiiy Akademiyasi raisi T.K.Qo'ziyev ham ishtirotchilarini tabriklab, diplom va qimmatbaho sovg'alar topshirdi.

Bolalarning sevimli guruhlari va kichkintoy xonandalar o'z qo'shiq va kuylari, raqlar bilan tengdoshlari shodligiga shodlik qo'shishdi.

Tanlov bo'lgandan keyin, g'oliblari, sovrindorlari bo'ladi albatta. Orangizda sovrindor bo'lganlarga havas qilmaydiganlar topilmasa kerak. Rosti, ushbu tanlov g'oliblari o'rnida bo'lib qolishni o'zim ham juda-juda istadm. Aniqrog'i, bolaligimga yanabir bor qaytgim keldi. Bolalarning ijodiy ishlarni maroq bilan tomosha qilayotganlarning nigohida ham qalbimda kechayotgan havas tuyg'ularini ilg'agandek bo'ldim.

Bu hafta juda seryog'in keldi. Sharros yomg'irdan keyin bulutlarni u yon, bu yon turtib, yana yuz ochgan quyoshning zarrin nurlaridan paydo bo'lgan kamalak ranglari ko'zimga yanada jilvakor bo'lib ko'riva boshladi. Ular naqadar yorqin, betakror, o'ziga xos jiloga ega... Xuddi siz bolajonlarning qalbingiz, tuyg'ungiz, mahoratingiz, ijodkorligingizdek...



(Davomi. Boshi o'tgan sonda).

-Bu mening singlim Oyqiz, u oyo to'lgan tunda tug'ilgan, - dedi bulut bola viqor bilan. - Mening ismim - Oqbola. Sening ismingni bilaman, d o i m buving

BOSYUK

qidirib yurganida eshitaman. Ketdikmi o'ynagani?

-Shu yerda, bog'da o'ynayveramiz, - dedi Xurshid.

-Yo'q, oyim ruxsat bermaydilar. Hozir beruxsat yerga tushganimizni eshitsalar ham jahllari chiqib ketadi. Yur, yaxshisi biz senga o'zimizning bog'imizni ko'rsatamiz.

-Men osmonga chiqolmayman-ku, - dedi Xurshid.

-E-e, bu qiyin ish emas.

Oqbola Oyqizga yaqin borgandi, ikkalasi ko'zdan yo'qolib, ular turgan yerda kattakon bulut paydo bo'ldi. Bulut ko'z ochib-yumguncha ot qiyofasiga kirib pishqirdi, Oqbolaning ovozi bilan dedi:

-Min ustimga tezroq!

Xurshid chirolyi oppoq otga qarab kulib yubordi va o'yab ham o'tirmay unga minib oldi. Ot yeldek uchib osmonga ko'tarilib ketdi. U shunchalik tez uchdiki, Xurshid hatto atrofni tomosha ham qilomadi. Birdaniga ot kishnab yubordi. Anqayib o'tirgan Xurshid yumshoq bulutlar ustiga dumalab tushdi. Otning o'rni paydo bo'lgan Oqbola bilan Oyqiz Xurshidning qo'lidan ushlab, bulut-daraxtlar tomon boshlab ketishdi.

Bog'da ularning onasi -

Bulut xola birto'da oppoq

va zangori ko'yak kiygan qizchalarning qoshiga o'sma qo'yib o'tirardi.

-Dadam kimga suv kerakligini bilgani ketdilar, - dedi Oqbola Xurshidga. - Shuning uchun oyim bilan opalarim dam olishyapti.

-Kimga suv kerakligini dadang qandoq qilib biladilar? - so'radi Xurshid tushunmay.

-Sen bilmaysanmi hali? - ajablandi Oqbola. - Axir

mening dadam Shamol-ku! Dadam hamma narsani biladilar, chunki butun Yer yuzi bo'yab uchib yuradilar,

SUT DARYOSI (Qissa)

sodir

bo'layotgan hamma voqealarni ko'radilar. Kimadir suv kerakligini ko'rsalar, bizni chaqiradilar. Oyim va opalarim bilan birga borib yomg'ir yog'diramiz. Ba'zan, hatto buvam ham bizga yordamlashadilar.

Xurshid Oqboladan buvasining kimligini so'ramoqchi edi-yu ulgurolmadi. Bulut xolaning ko'zi unga tushib qoldi-da, oldiga chaqirdi.

-Mehmonga keldingmi? - dedi Bulut xola jilmayib va yumshoq zangori barmoqlari bilan Xurshidning yuzini silab qo'ydi. Favvoraning oldiga borganda suv zarrachalari yuzga uriladi-ku, Xurshidning nazarida xuddi o'shanaqa zarrachalar yuzini silab o'tgandek bo'lib tuyuldi.

-Mehmonga keldingmi? Mehmonga keldingmi? - deya Oqbolaning opalari bir-birlariga gal bermay chug'urlab ketishdi. Ular Xurshidning atrofini o'rabolib, uni qiziqsini tomosha qilishardi.

-Sekinroq, sekinroq! Buvalaring uyg'onib ketmasin tag'in.

Qizchalar o'sha zahotiyoy qim bo'lib qolishdi.

-Yur, bog'da o'ynaymiz, - Xurshidning qo'lidan tortdi Oqbola. - Tag'in uyg'onib ketmasinlar, buvamning jahllari yomon...

U hali gapini tugatib ulgurmasidanoq to'satdan osmon gumburlab ketdi, rosayam uzun qing'ir-qiyishi qizmoqlar bulutlar bag'ri ni tilib o'tdi, guldiragan ovoz eshitildi:

-Kim u meni yomonlayotgann? Kiiimmm yoyoyommooonnn?! Kkiiimmm?!

Qizchalar bir zumda onasining oldiga g'uj bo'lib olishdi.

-Buvam... - shivirladi dahshat ichida Xurshid bilan Oyqizning qo'lidan ushlab olgan Oqbola va ularni tortib, Bulut xolaning orqasiga yashirindi.

Shupayt g'uvillab yetib kelgan Shamol bulut daraxtlarni har tomona surib tashladi. Daraxtlar orasidan ulkan

Muhabbat YO'LDOSHEVA

bulut - qasr ko'rindi. Qasr ostonasida minglab quyosh parchalaridek yaraqlayotgan to'n kiygan Qasirg'a buva turardi. Uqo'lini

xolaga chaqdi.

B u l u t
cho'zdi, yana chaqmoq

-Qaaannniiii uuu-uuuu?! -
gumburladi Qasirg'a buva.

-Otajon, tinchlaning, - g'uvilladi Shamol cholning atrofida gir aylanib, to'nining barlarini uchirarkan. - Tog'lardagi yaylovlar suvsizlikdan qovjirab yotibdi, o't-o'lanlar-u gullar qurib qolishyapti. Ularga suv kerak!

-Yomon bo'libdi-ku! - darrov jahlidan tusha qoldi buva. - Bo'linglar tez, toqqa boramiz.

Ketma-ket chaqnayotgan chaqmoqlar bir zumda buvaning yengiga kirib g'oyib bo'lishdi, gumburlayotgan ovoz ham tindi. Buvaning o'zi ham chaqmoqday bir yaraqladi-yu ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Buva allaqachon suv so'rayotgan yaylov larga yetib borgan, endi to bulutlar yetib kelishguncha u yerda chaqmoq chaqib, momaqaldoiroqni gumburlatib, yomg'ir yaqinligidan o't-o'lanlarni ogohlantirib, dalda berib turadi.

Kimdir Xurshidning yelkasiga turtdi. U o'girilib qarasa, qo'lida rang-barang ipaklardan o'rilgan arqon ushlagan, ikki tomchi suvdek bir-biriga o'xshash bolakaylor turishibdi.

-Biz Hasan-Husanlarmiz, - deyishdi ular baravariga va bir-birlariga qarab jilmayib qo'yishdi. - Hozir seni Yerga tushirib qo'yamiz.

Ular bir zumda Xurshidning qo'lidan ushlab olishdi-yu pastga - Yerga tomon sho'ng'ishdi. Xurshidning yuragi shuvillab ketdi, ko'z ochib-yumguncha oyog'i yerga tegdi, tizzasiga yumshoq bedalar urildi.

Xurshid tez suzib ketayotgan qora bulutlar orasida Oqbolani ko'rib qoldi. Mana u o'girildi, qo'lini silkitib qo'ydi. Shamol g'uvillagancha uning ovozini Xurshidga yetkazdi:

-Qaytib kelgandan keyin birga o'ynaymiz!

(Davomi bor).


Aziz bolajonlar!..

Zabardast shoir, o'zining butun umrini she'riyatga oshno etgan kamtarin inson Nazarmat bobongiz shu kunlarda muborak 85 yoshni qarshiladilar. Subhidam bag'rida gullar quchayotgan yaproqlarni, tillo rang qanot kapalaklarni, siz bolajonlarning jarangdor kulgularingizni qalamga olib, horimagan shoirimizning yoshlariiga- yosh, ijodlariga baraka tilaymiz!
Quyida bobongizning istiqlol kunida tavallud topgan nabirasiga bag'ishlab yozgan she'riy misralarini o'qiysiz.

SEN TUG'ILGAN KUN (Nevaram Qodirga)

Unutilmas kundir bugun nevaram, Kuz faslining ilk ayyomi - birinchi. Istiqlol kunida - tug'ilding sen ham, Cheksiz erur keksa otang quvonchi. Buvijoning o'tdi seni ko'rolmay, Oying esa kutdi seni har kuni. Buvung so'zin ayon etdi u atay:- «Siz o'g'il ko'rasiz, Qodir deng uni, Farzandlarim bo'lar u kun bayram, to'y, Qodirjon ulg'ayar yangi zamonda, Menga nasib etmas balki, dilda o'y, - Yashar nevaram hur O'zbekistonda». Buvijoning bashoratini, Eslayman, u yashar sog'inch dilimda. Ko'raman Istiqlol sharofatini, Lekin ko'rdi seni ozod elimda. Qutlayman nevaram baving nomidan, Navqiron avlodsan baxt ayyomidan, Istiqlol qirqida sen ham qirqa kir, Yuz yoshlik to'yida bo'lgan to'ychi pir.

NAZARMAT



USTOZLAR TA'LIMI

Mahallamiz kattakon, Uni Ilg'or deydilar. Bir yuz o'ttiz ikkinchi Maktabi bor deydilar.

Obod uning yo'llari, Shinam, ko'rkam uylari. Tarbiyada namuna Bo'lish avlod o'ylari.

Yaxshi o'qish - muddao, Ustozlarning ta'limi. Oshsin deydi doimo, O'quvchilar bilimi.

Ota-onamiz hardam, Yaxshi o'qing deydilar. Ustozlarday sizlar ham Dono bo'ling, deydilar.



Yozgi ta'til qanday o'tmoqda, bolakay?

Xusniddin MIRZAYEV, Toshkent viloyati Kasaba uyushmasi jismoniy tarbiya va sport jamiyati kotibiyat rahbar muovini, bolalar va o'smirlar sport maktablari direktorlar kengashi raisi:

- Viloyat Kasaba uyushmalari tizimida o'nnikita sport maktabi bor. Ularda 4900 nafar sportsevar o'quvchilar sportning 24 turi bo'yicha shug'ullanadilar.

Ularning yozgi ta'tilni maroqli o'tkazishlari hamda sport mahoratlarini yanada oshirishlari

uchun Parkent tumanidagi

«Sumcha»

oromgohini hozirlab qo'yanmiz. Unda 700 dan ziyod o'quvchilarning damolishi rejalashtirilgan.

Oromgohda bolalar dam olish bilan birga turli spartakiadalar uyuştirildilar, sport musobaqalarida faol qatnashadilar. Biz esa ular uchun barcha sharoitni yaratishga harakat qilamiz.

Mohira PO'LATOVA, Toshkent shahar Kasaba uyushmalari Kengashi madaniy-ma'rifiy va sport ishlari bo'limining yetakchi mutaxassis:

- Yaqinda poytaxt kasaba uyushmalari Kengashi xo'jalik rahbarlari ishtirotida oromgohlarda yozgi

mavsumga tayyorgarlik ishlari qay darajada ekanligini bilish ma q s a d i d a oromgohlarda bo'ldik.

Bu yil shahar korxonalariga qarashli 32 ta oromgoh faoliyat ko'rsatadi. Bundan tashqari, Xorazm viloyatining Xonqa tumanida joylashgan «G'ayrat» oromgohi ham bizning

ixtiyorimizga topshirildi. Ushbu oromgoh Xorazm magistral elektr tarmog'iga qarashli bo'lib, unda har mavsumda xorazmlik o'quvchilardan 180 nafari dam oladi.

Shu bilan birga Xorazmdan 1500 nafar, Qoraqlpog'i stondan esa 2500 nafar o'quvchilar Toshkent viloyatining eng so'lim oromgohlarda dam oladilar.

Ayni paytda «Semurg», «Kamalak», «Lochin», «Avtomobilchi», «Tramvaychi» kabi oromgohlar bolajonlarni qabul qilishga shay. «Geolog», «Chotqol», «Shodlik», «Aloqachi», «Nihol», «Zilola»

oromgohlarida esa zarur xom-ashyo va jihozlar bilan ta'minlash va ta'mirlash ishlari ketayapti. Qolgan oromgohlarda ham telefon aloqalarini tiklash, kutubxonalarini yangi nashrlar bilan to'ldirish, bolalar gazeta va jurnallariga obunabo'lish kabi ishlar amalgalashirilmoqda.

Ammo, guruch kurmaksiz


bo'Imaganidek,

OROMGOHLAR MAVSUMGA SHAYING?

«Nilufar»,
«Z a f a r »,

«Beldirsoy»,
«Nurafshon»,
«S h a r q Yulduzi» kabi oromgohlarda mavsumga tayyorgarlik ishlari endigina boshlangani kishini ranjitudi.

Bolajonlarning yozgi mavsumi ko'ngildagidek bo'lishi uchun Sog'liqni saqlash, Madaniyat va ichki ishlar boshqarmalari, savdo departamenti, «Yo'lovchitrans» uyushmasi, «Dori-



darmon» va sanepidstansiya xodimlari ham jalb qilingan.

Ravshan Yaqubboyev, Toshkent viloyati, kasaba uyushmalari Kengashi madaniy - ma'rifiy va sport ishlari mutaxassis:

- Bu yil Toshkent viloyat kasaba uyushmalariga qarashli 9ta sog'lomlashtirish oromgohi, sanatoriya tipidagi 6 ta oromgoh hamda 29 ta muktab oromgohlari ishga tushadi. Har yilgidek Orolbo'yi bolalarini sog'lomlashtirish mo'ljallanyapti. Shuningdek, viloyat kasaba uyushmalari kengashi ota-onasi yo'q bolalarni, «Mehribonlik uyi»

Yoz mavsumi bolajonlarni sog'lomlashtirish fasli hisoblanadi. Demak, bu davrda ularni ko'proq oromgohlarga jalb etish ayni muddaodir. Shunday ekan, oromgohga kelgan har bir bolaga yetarli shart-sharoit yaratish, ularning to'laqonli dam olishi va sog'lig'ini tiklashiga ko'maklashish mutasaddi rahbarlarning burchi, asosiy vazifasidir. Bolajonlarning yozgi ta'til kunlari boshlangan ayni kunlarda barcha oromgohlarda ish qizg'in davom etyapti. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashida bo'lib, soha mutaxassislari bilan shu xususda suhbatlashdik:

kunda kerakligini tushuntirishga harakat qilamiz. Keling, yaxshisi o'z so'zlarimni she'riy ifodalay:

Erta turganida har kuni barvaqt

Jismoniy tarbiya sizga-da quvvat.

Salomat bo'lay desangiz har vaqt

Sport va mehnatga bag'ishlang o'zni.

Yaxshi niyat hamrohim bo'lsin desangiz Shogirdlarim o'sib- unsin desangiz Boshimga baxt qushi qo'nsin desangiz Sport va mehnatga bag'ishlang o'zni.

Tanim sog', dilim quvnoq bo'lay desangiz Mardlikni maydonda sinay desangiz Millionlar olqishin olay desangiz Sport va mehnatga bag'ishlang o'zni.

Nomingiz tillarda doston bo'lsa ham Makoniz yashnagay bo'ston bo'lsa ham Yuzingiz misoli shirmon bo'lsa ham Sport va mehnatga bag'ishlang o'zni.

Raqamlarga murojaat etadigan bo'lsak, 1996 yilda Toshkent viloyatidagi xo'jalik, korxonalar tasarrufida jami 36 ta shahardan tashqari oromgohlar faoliyat ko'rsatgan, 2002 yilda ulardan 17 tasigina ishlagan. Bu yil esa ular soni yana bittaga kamaydi. Hozirda bu oromgohlar viloyatdagi muktab yoshidagi bolalarning 3,2 foizinigina qabul qila oladi. Agar Orolbo'yi bolalarini har yili qabul qilinishini inobatga oladigan bo'lsak, bu raqamlar yana ham kamayadi. Oromgohlarni ushlab turgan korxona, xo'jalik rahbarlarining ozgina mas'uliyatsizliklari oqibatida hozirda

davrida halok bo'lgan viloyat ichki ishlar xodimlari farzandlaridan 60 nafari «Sumcha» oromgohida, Angren «Mehribonlik uyi» bolalaridan 225 nafari «Koinot» oromgohida dam oladilar.

O'tgan yili faoliyat ko'rsatgan 17 ta shahardan tashqari sog'lomlashtirish oromgohlari o'ttasida o'tkazilgan «Eng yaxshi oromgoh» ko'rik - tanlovida Olmaliq «Ammafos» ishlab chiqarish birlashmasining «Chimyon» oromgohi birinchi, «Chirchiq qurilish materiallari va konstruksiyalari hissadorlik jamiyatining «Go'zal» oromgohi ikkinchi o'rinni, «Kenaf» O'zbek-Chex qo'shma korxonasining «Kelajak»

oromgohi uchinchi o'rinni egalladi.

Bu yil ham albatta barcha oromgohlarda tarbiyaviy hamda sport musobaqalarini o'tkaziladi. Eng faol, eng namunali oromgohlolar aniqlanadi.

Saidorif PO'LATOV, Toshkent viloyati, kasaba uyushmalari jismoniy tarbiya va sport jamiyati bo'lim mudiri:

- Biz oromgohlarda o'tkaziladigan spartakiadalar sport musobaqalarini uyuştiramiz. Sport barchamiz uchun



mayjud bu oromgohlarni ham qo'ldan boy berish mumkin. Zero, bolajonlarimizning yozgi ta'tillarini maroqli va mazmunli o'tkazishlariga ko'maklashish barchamizning burchimizdir.

Feruza SOYIBJON qizi suhbatlashdi.

SOJIDANING DEGANI

Ertalab boraman bog'chamga,
Yetaklab olaman dadamni.
Bo'lmasa, adashib ko'chada,
Tashvishga qo'yadi odamni.

Lekin dadam kechki payt,
To'ppa-to'g'ri, qayrilmay-
Topib kelar kechikmay,
Shunisiga qoyilman!

CHOL

Tanaffusda munkayib
Muhsin asta borardi.
Ustozi ko'rgan ko'yi,
-Ne bo'ldi?- deb so'radi.
-Men cholman-da,- der Muhsin,
Ovoz berib keksaday.
-E, otaxon! Yo'l bo'lsin?
-Pensaga-da, pensaga...



(Davomi.Boshi o'tgan sonlarda).

-Ha, De Broylmi... - Landau o'ylanib qoldi.
Afsuski, juda kam ish qilgan...

U quruq va'daga ishonmasdi. Yaxshi niyat

Bilimim shu yerga yetib keldikim,
Bilimsizligimni endi tushundim.

Abu Shukur Balxiy

yaxshi narsa,
albatta, lekin
a m a l g a
o s h m a s a

nima na? «Siz kam ishlayapsiz?» - bu Dauning
shogirdlariga eng og'ir tanbehi edi.

-Insonning risoladagidek
rivojlanishini qiziquvchanlik tuyg'usisiz
tasavvur qilib bo'lmaydi, menimcha, -
deb yozgandi Landau. - Bu bebafo fazilat yo'qligi
dunyoqarashi tor odam bilan muloqot dunyoqarashi tor
odam bilan uchrashganda ayniqsa yaqqol sezilib turadi.

Landauning o'zida esa qiziquvchanlik tuyg'usi haddan
ziyod kuchli edi. Uni hamma narsa qiziqtirardi: siyosatda
nima yangilik, qanday yangi filmlar chiqdi, o'rta maktab
islohoti qanday natijalar berdi, gazeta qanday tayyorlandi
va hokazo...

Aktyor Igor Kvashanining xotiralaridan:

-Koktebel oromgohi plyajida bir odam bilan tanishib
qoldim. Birgalikda cho'millardik, oftobda qorayardik va
... Stanislavskiy tizimi haqida suhbatlashardik. Uni
kimligini bilmasdim, keyin so'rasam: «fizikman» dedi.
Keyinroq surishtirib aniqlasam, Landau ekan. U
Stanislavskiy tizimiga juda qiziqib qolgandi...

Agar odamda hazil-mutoyibaga moyillik bor ekan, u
aslo yo'qolmaydi. Dahshatli halokatdan so'ng Landau
tuzala boshlagani ham uning hazillaridan bilindi.

Uning palatasiga ruhshunoslar qo'shuv belgisi va
doira shakli chizilgan qog'ozlarni ko'tarib kelishdi.

-Bu nima? - deb so'rashdi qo'shuv belgisini ko'rsatib.
-Doira, - deya javob qildi Landau jiddiylik bilan.
-Mana bunisi-chi? - doirani ko'rsatishdi.
-Qo'shuv belgisi.

Ruhshunoslar sarosimada chiqib ketishdi. Landau esa
tibbiy hamshiraga ko'z qisib qo'yib shivirladi:

Shoirlar bolalarga**MANZARA**

Yomg'ir chalar nog'ora,
Qaynab chiqar chuchvara.
Yomg'ir, yomg'ir yog'aloq,
Suvga qonsin dala-bog'!
Sochganing bol, non bo'lsin,-
Olam guliston bo'lsin!
...Yashnab ketdi tevarak,
Salom senga, kamalak!
Bolalik orzusimon
Varakka to'ldi osmon...

MOMAQALDIROQ

- Zab cho'chitib yubording,
- Obbo, momaqaldir.
- Shuncha darding bor ekan,
- Aytmaysanmi oldinroq?
- Yoz bo'yi yo'qlamading,
- Qayga bo'lganding g'oyib...
- Yomg'irni xo'p kutishdi,
- Qir-adirlar sarg'ayib.

**O'G'LIM SARDOR BILAN SUHBAT**

-Istiqlol nima, dada?
-Insonga ishonch, dalda.
-U nimaga o'xshaydi?
-Quyosh misol yashnaydi.
-Kechqurun botadimi,
Tog'larda yotadimi?
-U hech qachon botmagan,
Undan kuch olgan Vatan.
Sendek aylar tabassum,
U -mening ko'rар ko'zim.
-Ha-da! Sezuvdim o'zi-
Istiqlol xuddi o'zim!

*Sobir JABBOR,
Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri.*

DARAXT

- Odamlarga
- o'xshaydi daraxt,
- Shamolda entikib
- chiqarar barg-sas.
- Kurtaklarda
- tars yorilar ahd,
- Quyoshga intilib
- qo'zg'aydi havas.
- Odamlarga o'xshama
- daraxt,
- Tashlab ketolmaydi
- ungan yerini.
- Birovga yomonlik
- qilmaydi hech vaqt,
- Qo'llay ham olmaydi
- biri-birini.

**TUZLANISH**

Barchinoy ovqat qildi,
Pazanda-da, «zo'r» qipti.
Kechki tuzi past edi,
Bugun bo'lsa sho'r qipti.
Dasturxon atrofida
Hamma unga yuzlandi.
Icholmadik, o'ziyam
Ovqatidek tuzlandi.

KIM ZO'R?

-Chiranma,- dedi Botir,
-Chindan ham bo'lsang botir.
Ana, qaynagan suvga
Bitta qo'lingni botir.

A'LOCHILIK**SABABI**

Daftarim «besh» bahodir,
Olsam «ikki» baho-dir.
Titrayman, shu kun dadam
Kaltaklar, der Bahodir.

DO'STLIK SHARTI

Qarindoshmiz-bo'lamiz,
Ahil-inoq bo'lamiz.
Qani ber-chi, tortingni
Ikkiga teng bo'lamiz.

*Ne'mat DUSHAYEV,
Toshkent viloyati, Angren
shahri.*

ABADIYAT ARDOQLACAN ALLOMALAR

Ushbu ruknni Rustam OBID olib boradi

-Rosá bopladium-a ularni! Endi bo'lar-bo'lmash narsalar
bilan ovora qilishmaydi...

Hamshira bu gapni ruhshunoslarga aytib berdi, ular esa
sevinib ketishdi: demak tajriba kutilgandan a'lo o'tibdi.
Modomiki, joni og'rib turganda hazillashish ko'ngliga
sig'yaptimi - tuzalib ketishi aniq!

hazil - tarbiya vositasi hisoblanar, satira esa
birodarlarga tanqidning o'tkir quroli edi.

Landauni

g'atalife'lli olim,
i l m - f a n
h a q i d a g i
b e m a z a

Buyuk kishilar olmos yanglig'

noyob va shu qadar serjilodir.

Sharq naqli

kitoblarning parishonxitir qahramonlaridan biri deb
biluvchilar ham bo'lgan. Chunki u rasmiy qabulga

"FIZIKA - JONU DILIM"

Landau ilmiy raqiblari bilan hech qachon urushib
so'kishmas, faqat hazil qilardi. Og'ir so'z baayni toshdek
zil-zambil, hazil esa qushdek uchadi, goho juda uzoqqa
parvoz qiladi...

Dau kulib turib so'zlasa ham ba'zan hazili juda tagdor
bo'lardi. Bir do'sti, mashhur fizik, akademik ko'rgani
kelganida ortda qolib ketdim, maxsus jurnallarni anchadan
buyon o'qimay qo'ydim, deya shikoyat qildi:

-Hechqisi yo'q! - dedi fizik. - O'zim senga hammasini
aytib beraman!

-Sen nimani ham aytib bera olarding? - dedi Landau

kimlardir qotib qolgan rasmiy udumlargacha qarshi chiqish,
o'ziga xoslikni ko'rsatish deb tushunar balki. Ammo,
lekin boshqa jihatdan qaraganda, ana shu kovboyka va
sandallar ham fe'l-atvor belgisi. Landau ilm-fanda ham
qotib qolgan aqidalarga qarshi chiqib, ularni buzmadi, o'ziga xos yo'llarni ishlab chiqmadimi, axir?!

Lev Davidovichning 60 yilligida uyiga mashhur
mehmonlar, fizika olami yulduzları - P.Kapitsa, I.Kikoin,
A.Alixonov, A.Migdal, A.Abrikosov, E.Andronikashvili
kelishdi. O'sha oqshom ko'p hazil-huzullarni eslashdi.
Bir mahal yubilyar davrani tark etayotgani uchun uzr
so'rab, xonasiga chiqib yordi. O'tradagi quvnoq ruh shu
zahotiyoy so'ndi.

Taxminan uch oydan keyin, 1968 yil 2 aprelda Landau
olamdan o'tdi. Tomir devoridan ko'chgan tiqin uning
hayotiga bir lahzada nuqta qo'ydi. O'sha kuni akademik
A.Migdal shunday deb yozgandi: «Zamonamizning eng
ajoyib fiziklaridan biri vafot etdi. Ilm-fan ixtisoslashigan
asrimizda u balki nazariy fizikaning barcha sohalari bilan
shug'ullangan olimlarning eng so'nggisiidir».

Nihoyatda aniq ta'rif. Jahon olimlari orasida bu qadar
universal fiziklardan yana topilarmikan... Tag'in kim
biladi deysiz, u hozir biron universitet auditoriyasida
o'tirgan bo'lishi ham mumkin. Faqat vaqt(soati)
kelmaguncha uni tanimaymiz, xolos.

(Tamom).



jablangan qiyofada. - Meni fizika qiziqtiradi-ku, axir!

Olim hayotining o'ttiz yilini bag'ishlagan fizika
muammolari institutda hozirjavoblik-ma'naviy sog'lomlik,

MUSHUK HAM MEHRGA ZOR EKAN

Gulnoza oilada yolg'iz farzand bo'lgani uchun ota-onasi uning ko'ngliga qarashadi.

Bir kuni dadasi unga chiroyli mushukcha sovg'a qilibdi. Afsuski, sariq rangli mushukchalarni xush ko'radigan qizchaga dadasi keltirgan qora mushukcha yoqmabdi. Shuning uchun ham u mushukchaga qaramas, ovqat ham bermas, o'ynagisi kelib oyoqlariga suykalsa, tepib yuborar ekan. Unga hatto ism ham qo'yabdi. Bu holni ko'rgan onasi mushukchani qo'shnisining qiziga berib yuboribdi.

Gulnoza mактабдан kelsa, mushukchasi ko'rinnabdi.

-Oyijon, mushugim qani?-so'rabdi onasidan.

-U sendan xafa bo'lib, qo'shnimiznikiga chiqib ketdi,-debbi onasi.

-Nima, u odammidiki xafa bo'lsa.

Gulnoza shunday deya qo'shnisining yuguribdi. Qarasa, qo'shni qizcha ayvonda mushukchani erkatalib, o'ynatib o'tirgan ekan. Oldiga sut ham qo'yib qo'yabdi. Unga «Qoravoy» degan nom ham beribdi. Gulnoza ularning yoniga borib, mushukchasi ko'tarmoqchi bo'libdi. U esa xuddi arazlagandek qo'shni qizning orqasiga yashirinib olibdi.

-Ber, bu mening mushugim,-deya dast ko'tarib uyiga olib chiqibdi. Oradan hech fursat o'tmay qarasa, mushugi ko'rinnabdi. Qidira-qidira uni qo'shnisining uyidan topibdi. Bu hol bir necha bor takrorlanibdi. Qamab qo'ysa, miyovlayverib bezor qilib yuborar, chiqarib yuborsa, qo'shninikiga chopar ekan.

Shunda Gulnoza jonivorlar tilsiz bo'lsa ham, mehrga tashna ekanliklarini anglab yetibdi. Afsuski, end kech edi...

Go'zal ABDURAHMATOVA,

Farg'ona viloyati,


Beshariq tumanidagi 33 - maktabning

5 - «G» sinf o'quvchisi.

Фарғона вилояти, Бешарик туманидаги

22 - ўрта мактабнинг 5 - «Б» синф ўқувчиси Боҳира


БЕГМАТОВА мушукча расмни ўзгариши.



Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 13 - umumiy o'rta ta'lif maktabining 7 - «V» sinf o'quvchisi Nargiza HAMZAYEVA chizgan rasmini «Bo'ribosar qoplonim» deb nomlabdi.

ADASHGANING ARAZI

(Voqeiy hikoya)



Bahorgi ta'til kunlarining birida xolamnikiga mehmonga bordik. Xolam bizni tandirdan endigina uzilgan ko'k somsalaru so'lqildoq nonlar bilan siyladilar. So'ngra biz o'ynash uchun hovliga chiqib ketdik. Xolamning hovlisini hayvonot bog'iga qiyoslash mumkin: qo'y, kuchuk, tovuq, quyon, o'rdaklar boqadilar. Uylarining yonidan uncha katta bo'lmagan ariq oqib o'tadi. Bahor oylarida ariqda suv yanada ko'payib, sharqirab oqarkan. Ariqda suzib yurgan o'rdaklariga qarab turib xolam bizga yaqinda bo'lib o'tgan bir voqeani so'zlab berdilar. Bir kuni oq va chipor rangli o'rdaklari suzib, uzoqqa ketib qolishibdi. Kech tushishi bilan g'o-g'olashib iniga kirib keladigan o'rdaklaridan darak yo'q emish. Xavotirlanib ancha

qidiribdilar. Oradan o'n besh kun o'tibdi hamki, o'rdaklari qaytishmabdi.

Xolam ulardan umidlarini uzib ham qo'yibdilar. Bir kuni qizlari Feruza ikki o'rdakni oldiga solib, kirib ketibdi. Xolam xursand bo'lib ularning oldiga ovqat qo'yibdilar. O'rdaklar esa ovqatga tumshug'ini ham tekizmay, xuddi arazlagandek turaverishibdi. Shu paytgacha bizni qidirmading, deyishayotgandir-da, deb tushunibdilar xolam bu holni o'zlaricha. Ularni silab-siypalab, kechirim so'ragandek bo'libdilar. Ertasi kuni «sayohatchi o'rdaklar» ham boshqa o'rdaklar bilan talashib-tortishib ovqatlanishayotgan emish.

Volida TO'LAGANOVA,
Yunusobod tumanidagi 273 - maktabning 8 - «A» sinf. o'quvchisi.

CHUMOLI HAQIDA ERTAK

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Bir tepalikda ziqna va maqtanchoq chumoli yashar ekan. Yomonning bir qilig'i ortiq deganlaridek, u yana juda dangasa ham ekan. O'zi mehnat qilmaganiga yarasha do'stlarini ham gapga solib, vaqtini behudaga ketkazar ekan. Bora-bora uning oldi-qochdi hikoyalari, balandparvoz gaplarini hech kim tinglamay qo'yibdi. O'zgalar hisobiga kun ko'rishi ham jonlariga tegib, uni yakkalatib qo'yishibdi. Chumoli arazlab, uzoqlarga ketib qolibdi. Lekin u o'z to'dasidan ajragan chumolining xoliga voy ekanligini, uzoq yashay olmasligini bilmagan ekan. Oradan hech fursat o'tmay, nobud bo'libdi.

Qissadan hissa shuki, ayrliganni ayiq, bo'linganni bo'ri yeydi.

Shuhrat ODILOV,
Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi 37-maktabning 8 - «V» sinf o'quvchisi.



QALDIRG' OCHNING QARG'ISHI

Bahor fasli edi. Kunlar isib, qushlarning chug'ur-chug'uri avjiga mingan palla. Zokir o'zi yasagan yangi roqatkasini olib, ko'chaga chiqdi. Saiddan tashqari hamma o'rtoqlariga maqtanib chiqdi. Chunki Said o'ta mehribon, tarbiyalı bola bo'lib, doim unga, qushlarga ozor bermagin, deya nasihat qilardi.

-Nima qilasan qushlarni otib,-deya so'zini boshlagan ham ediki, Zokir uning gapini bo'ldi:

-Alamim bor qaldirg'ochlarda. Mana, bahor tugay deyapti hamki, ayyonimiz peshtoqiga in qurmayaapti. Shunday deya polaponlariga yemish izlab yurgan ona qaldirg'ochni nishonga oldi. Bechora qaldirg'och bir-ikki tipirchilab, jon berdi. Zokirunga zarracha ham achinmadi.

Saidning esa qushchaga juda rahmi keldi:

-Nega unday qilding, axir qarg'aydi-yu,-deb qoldi do'stining ortidan...

Oradan kunlar o'tib, to'satdan Zokirning tobi qochib qoldi. Keyinchalik nimadir sabab bo'lib, bir qo'li ishlamay qoldi. Shunda beixtiyor uning yodiga do'stining gaplari tushib ketdi...

Maftuna QO'CHQOROVA,
Chilonzor tumanidagi 179 - maktabning 6 - sinf o'quvchisi.

Andijon viloyati, Izboskan tumanidagi tasviriy va amaliy san'at akademik litseyining 6 - «A» sinf o'quvchisi Elyorbek JAMOLIDDINOVning jonivorlarni juda sevishini chizib yuborgan rasmlaridan ham bilish mumkin, shunday emasmi?

**MAHALLAM**

Mehmon bo'lib kelng No'g'oy Qo'rg'onga,
Kundan-kunga chiroy ochar mahallam.
Biz uchun muqaddas ushbu go'shada,
Tug'ilib o'sgandir ota-onam ham.

Kelinlar, qizlari barvaqt turishar,
Ko'cha, hovlilari ko'rkan, sarishta.
Deydilar: pokiza, ozoda uyda,
Qut-baraka bo'lar, bo'lar farishta.
Bir kelib keting No'g'oy Qo'rg'onga,
Ko'rib, bag'ri dilingiz ochilib ketar.
Keksalari duogo'y, har so'zi hikmat.
Yoshlarning g'ayrati sizni lol etar.

Mahallamdir - bu kichik Vatan,
Yurtimizning bir bo'lagidir.
O'zbekiston gar ona bo'lsa,
Mahallam uning yuragidir.

*Ma'sud JABBOROV,
«Yangi Avlod» bolalar klubi a'zosi.*


BOLAJONLAR

Dilga shodlik ulashgan,
Qo'l ushlashib quvnashgan,
Bor ovoz-la kuylashgan,
Borbo'ling bolajonlar!

Siz borsiz, borliq go'zal,
So'zingiz qandu asal,
Siz yurtga bo'ling mash'al,
Sog' bo'ling bolajonlar!

Siz xalqimiz ertasi,
Keljakning egasi,
Ezguliklar mevasi,
Borbo'ling bolajonlar!

*Gulnoza QUVONDIQOVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi,
To'rtko'l shahridagi 30 - muktabning
11 - «V» sinf o'quvchisi.*



Toshkent shahar, Farg'onan yo'li ko'chasi, 2-berk ko'cha, 5 uyda yashovchi tengdoshlarining Gulhida QULAHMEDOVA va Muborak QURBONOVALarning chizgan rasmlaridan «Rasmlar ko'rgazmasi»ni tashkil qildik.

U nima bo'ldiki, meni yurak javob talab qilaveradi...
ohangrabodek o'ziga chorlayveradi?

U qanday qudrat ekanki, yo'limda uchragan har

q a n d a y
to'siqlarni
y e n g i b

o'tishimga madadkor bo'ladi? Nega qo'nim topadi. U hayotimiz davomida

fikru zikrim uning bilan band? U qayerda makon topgan? Unga yetishish yo'llarini toparmikanman?

Uning visoliga oshufta dilim q a r s h i l i k l a r girdobidan o'ta o l a r m i k a n ?

Savollar, savollar... meni qiyayveradi.

Q a l b i m d a junbushga kelgan tuyg'ular mendan javob kutadi. Mening esa aqlim ham, tilim ham lol. Lekin qat'iyatl

U - ulkan va begiyos bir kuch. Unga erishish har kimga ham nasib

e t a v e r m a y d i .

Qalblardagi uzoq-uzoqlarni fath etgan orzu qushi ham unda

bizlarga hamroh bo'ladi. Biz esa unga erishish uchun yashaymiz. Qalbimizdag'i tilak, istaklarning bari unga yo'naltirilgan. U yurakdag'i tuyg'ularning eng sarasi, eng bebahosidir.

O'ziga yetishish uchun tinimsiz mehnat, mashaqqat, sabr-bardosh talab qiladigan bu sirli va mo'jizakor tuyg'u - MAQSADdir!

Sarvinoz HUSAINOVA,

Namangan viloyati,

Chortoq tumanidagi Yo'ldosh Oxunboboyev nomli 25 - o'rta muktabning 11 - «B» sinf o'quvchisi.

**ISMINI AYTMAIDI**

- Maftuna, singilchalik bo'libsanmi? Ismi nima?-so'radi Nodira dugonasidan.

- Ismini hali aytgani yo'q. U faqat yig'lashni o'rganib kelibdi...

SIR

Nargizaga xolasi der:


- Tiling buncha hamshirin?
- Shokolad yegan edim,
Qanday bildingiz sirin?

**TOPISHMOQLAR**

Ko'kka chiqib olov-shar,
Bizga ziyo ularshar.



Kunga qarab tolmaydi,
Undan ko'zin olmaydi.



Oyim yashil gul ekdi,
Isi atrofni tutdi.

Rayhon

*Nigora MAMADALIYEVA,
Andijon viloyati, Bo'z tumanidagi
13-gimnaziyaning 7 - sinf o'quvchisi.*

Ona yurting - olini beshiging
TONG Yulduzi

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:

O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI, «KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOIY HARAKATI, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» XAYRIYA JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:

Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa

MUSURMONOVA,
Qahramon QURONBOYEV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinnbosari),
Po'lat MO'MIN,
Mukarrama MURODOVA,
Tohir MULLABOYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi kompyuter
bo'limida terib
sahifalandi.

Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.

“Sharq” nashriyot -
matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida ofset
usulida bosildi.

Adadi - 33729
Korxona manzili:
“Buyuk Turon”
ko'chasi, 41.

Buyurtma № Г - 502
Gazetani
Muhammara PIRMATOVA
sahifalandi.

Feruza
ODILOVA

Ro'yxatdan o'tish
tartibi № 000137
Manzilimiz: 700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.

Tel: 144-63-08
144-63-75